FARG‘ONA VILOYATI YOZYOVON TUMANI HOKIMINING QARORI

150600, Yozyovon tumani Mustaqillik ko`chasi 1-uy, tel: (73) 412-15-15, www.yozyovon.uz

2022 - yil 17 - mart 81-11-165-Q/22 Yozyovon tuman hokimligi

Yozyovon tumani Andijon ko`chasi Bahor M.F.Y. xududida qurib bitkazilgan “Aholi bandligiga ko`maklashish markazi” binosini foydalanishga qabul qilish haqida.

Farg`ona viloyati hokimligining “Yagona Buyurtmachi Xizmati” injiniring kompaniyasining Farg`ona viloyat hokimining 2019- yil 27- may kungi bayoniga asosan Yozyovon tumani Andijon ko`chasi Bahor M.F.Y. xududida qurib bitkazilgan “Aholi bandligiga ko`maklashish markazi” binosini foydalanishga qabul qilishni so`rab tuman hokimi nomiga 2021- yil 18- oktyabr kungi 01-20-8/1970-sonli hamda tuman Aholi bandligiga ko`maklashish markazi direktori D.Yusupovning 2021-yil 11-oktabr kungi 24-09-1-07-173-sonli tuman hokimi nomiga yozgan so`rov xatlarini va taqdim etilgan xujjatlari ko`rib chiqib, O`zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi Qonunning 6 va 25-moddalariiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Farg`ona viloyati hokimligining “Yagona Buyurtmachi Xizmati” injiniring kompaniyasining Farg`ona viloyat hokimining 2019-yil 27-may kungi bayoniga asosan Yozyovon tumani Andijon ko`chasi Bahor M.F.Y. xududida qurib bitkazilgan “Aholi bandligiga ko`maklashish markazi” binosini foydalanishga qabul qilishni so`rab tuman hokimi nomiga 2021 yil 18 oktabr kungi 01-20-8/1970-sonli hamda tuman Aholi bandligiga ko`maklashish markazi direktori D.Yusupovning 2021- yil 11- oktyabr kungi 24-09-1-07-173-sonli tuman hokimi nomiga yozgan so`rov xatlarini qanoatlantirilsin.

2. “Zodiak Prospekt servis” MCHJ tomonidan Yozyovon tumani Andijon ko`chasi Bahor M.F.Y. xududida qurib bitkazilgan “Aholi bandligiga ko`maklashish markazi” binosini davlat qabul xay’atining foydalanishga qabul qilish xaqidagi 2019 yil 1 dekabr kungi dalolatnomasi tasdiqlansin.

3. “Zodiak Prospekt servis” MCHJ tomonidan Yozyovon tumani Andijon ko`chasi Bahor M.F.Y. xududida qurib bitkazilgan “Aholi bandligiga ko`maklashish markazi” binosi davlat qabul xayatining foydalanishga qabul qilish xaqidagi 2019- yil 1 -dekabr kungi dalolatnomalariga asosan foydalanishga qabul qilinsin.

4.Ushbu qarorni bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o`rinbosari D.Bekmirzaev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Djalilov D. T.**